



*2023: Special Issue "Problems and Prospects for the Development of Accounting, Economic Analysis and Audit Based on International Standards in the Conditions of Economy Digitalization"*

## MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI

**Raxmatov Jonibek Ismoil o'g'li**  
QMII Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

### Annotatsiya

Mazkur maqolada moliyaviy natijalarini hisobga olish va nazorat qilishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha taklif hamda tavsiyalar berilgan. Bozor iqtisodiyotining zamonaviy sharoitida moliyaviy ko'rsatkichdan samarali foydalanish tadbirkorlik subektlari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy natija qo'shma biznes boshqaruvi, shuningdek kreditorlar uchun investorlar, hamkorlar jalb etish uchun muhim mezon hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** daromad, xarajat, mahsulot, aktivlar, majburiyatlar, kapital

**Kirish.** Mamlakatimiz amaliyotidagi buxgalteriya hisobi ham boshqa sohalar qatorida milliy iqtisodiyotimizning o'ziga xos xususiyatlari va xalqaro standartlar asosida takomillashib bormoqda. Boshqa sohalar qatorida hisob tizimidagi turlicha yangi-yangi g'oyalar, atamalar va qarashlarning, xususan ishlab chiqarish hisobi to'g'risidagi turlicha qarashlar yuzaga kelishi buxgalteriya hisobi tizimidagi islohotlarni yanada kengroq doirada davom ettirishni talab etadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida xo'jalik faoliyati jarayonining yakuniy bosqichida moliyaviy natijalarni aniqlashda olinadigan tayyor mahsulotlarning tannarxida sarflangan xomashyo va materiallarning ulushini imkoniyat darajasida kamaytirish muhim o'rin tutadi, chunki talab va taklifdan kelib chiqqan holda ularga o'rnatilgan baho mahsulotlarning xaridorgirlik darajasini belgilaydi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021 yil 1 yanvardan boshlab, Moliyaviy hisobi xalqaro standarti asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni Moliyaviy hisobni xalqaro standarti asosida tayyorlashi belgilab qo'yildi [1].

Mahsulotlar xalqaro bozorga kirib borishi uchun aksionerlar, investorlar maxsulot tannarxi,

ularning bozor narxlari va moliyaviy natijalar to'g'risida atroflicha malumotga ega bo'lishi zarur.

Pandemiya sharoitida xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining asosiy maqsadi ijobiy moliyaviy natijaga erishish, ya'ni maksimal darajada foyda olishdir. Shu holat kompaniyalarda moliyaviy natijalar hisobi to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlarni olish va muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini yaratib beradi. Bu shundan dalolat beradiki, xalqaro bozorga chiqish xorijiy hamkorlarning moliyaviy natijalar hisobi xususiyatlarini aniqlash, ularda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llashni taqozo etadi. Shuning uchun ayni paytda butun dunyoda moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilishga e'tibor qaratilmoqda. Vaholanki, jahonning ko'pgina davlatlari fond birjalarida aksiyalari joylashtirilgan kompaniyalardan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzishni talab etadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining turli soha va tarmoqlarida faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi subektlarning moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish zarurati hozirgi globallashtirish jarayonida mazkur **muammoning dolzarbligini** yanada oshirmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Moliyaviy natijalarni hisobga olish va nazorat qilish va uni takomillashtirish bo'yicha ko'pgina chet el va O'zbekiston olimlari o'z fikrlarini bildirishgan. Masalan, Rossiyalik olim A.V.Smetankoning ilmiy tadqiqotlarida daromad va xarajatlarni hisobga olish, shuningdek, moliyaviy natijalarni shakllantirish mexanizmi tashkilot va boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini tahlil qilish uchun axborot manbai bo'lganligi sababli moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish zarur. [4].

Rossiyalik olim L.V. Donsovaning fikriga ko'ra: buxgalteriya hisobida foyda olishning tuzilishi va tartibi eng muhim masalalardan biri hisoblanishi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi ishonchli hisobot va foydadan foydalanish korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash uchun yaxshi asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Uni mustahkamlash yoki qiyin moliyaviy vaziyatdan chiqish chora-tadbirlarini belgilab olish muhim omillardan biri ekanligini ta'kidlab o'tgan [5].


A.V.Smetanko, A.S.Kovalenko, I.S.Sharapova, YE.S.Sorokina, N.V.Burdyuglarning ilmiy tadqiqotlarida moliyaviy natijalarni hisobga olish, moliyaviy hisobning yakuniy bosqichi hisoblanadi deb o'z fikrlarini yoritib berdilar. Shuning uchun uni takomillashtirish buxgalteriya hisobini oldingi bosqichlarda ratsionalashtirish lozimligi va bunday sharoitda buxgalteriya hisobi va marketingni uyg'unlashtirishga asoslangan strategik hisob tizimiga erishish ma'lum bir davr uchun tashkilotning faoliyati natijasida deb tushunish kerak degan xulosaga keldi [7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot ish jarayonida iqtisodiy voqelik jarayonlarini o'rganishning ilmiy usullari – experimental tadqiqot, umumlashtirish, guruhlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, istiqbolli prognozlash, iqtisodiy tahlil, buxgalteriya hisobi va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar** O'zbekiston Respublikasi ham MHXS lariga bosqichma-bosqich o'tmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasida "Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, shu jumladan yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish yo'li bilan, puxta o'ylangan tashqi qarzar siyosatini amalga oshirishini davom etish, jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan samarali foydalanish" vazifasi ham xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari Qo'mitasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishni dolzarb masalalar qatoriga ko'tarmoqda. [2]


• Ushbu masalalarning kun tartibiga qo'yilishi MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzish metodologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi. Bitta xo'jalik yurituvchi subektning odatdagi faoliyati

natijasida paydo bo'ladigan moddalar boshqa subektga nisbatan favqulodda bo'ladigan moddalar bo'lishi mumkin. Daromadlar va xarajatlarning moddalari o'rtasidagi chegara hamda ularning har xil kombinatsiyalari ham xo'jalik yurituvchi subektning ishlari natijalarini ko'rsatish imkoniyatini beradi. Bunday bo'limlar har xil moddalarni o'z ichiga oladi. Masalan, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot soliqqa tortilgungacha va undan keyingi moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan daromadni ko'rsatadi. Xususiy kapital egalarning ulushlari daromad hisoblanmaydi; xususiy kapitalning egalari o'rtasida taqsimlanishi xarajat hisoblanmaydi. "Moliyaviy hisobot orqali barcha axborot ehtiyojlarini qondirish mumkin bo'lmasada, barcha foydalanuvchilar uchun umumiy bo'lgan talablar amal qiladi. Nimaga deganda, sarmoyadorlar kompaniya uchun kapital ta'minotchisi hisoblanadi, ularning ehtiyojini qondiradigan axborotlarni ta'min etish moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilarning ham ko'pchilik ehtiyojlarini qondira oladi". Kompaniya rahbariyati har bir qo'llaniladigan BHXS va izohlari bo'yicha Doimiy Qo'mitaning izohlash talablariga to'liq muvofiq holda hisob siyosatini ishlab chiqishi kerak. «Maxsulot (ish, xizmat)larni ishlab chikarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga asosan xo'jalik subektlari quyidagi faoliyatdan daromad oladi (1-rasm).



**1-rasm. Daromadlar turlari Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqildi.**


**Daromadlar deb** xo'jalik yurituvchi subyektlarda hisobot davrida faoliyatini yuritish mobaynida aktivlarning ko'payishi yoxud majburiyatlarning kamayishidir. **Xarajatlar deb** korxonada aktivlari miqdorining kamayishiga olib keluvchi majburiyatlar vujudga kelishi yoki aktivlar sarflanishi natijasida iktisodiy manbaning kamayishiga aytiladi. Ular, odatda, faoliyat muntazamligini ta'minlash va daromad olish uchun sarflanadi. «Maxsulot (ish, xizmat)larni ishlab chikarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga asosan xo'jalik yurituvchi subyektlar quyidagi xarajatlarni amalga oshiradi.



**Manba: 21-BXMS asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.**

Xarajatlarni hisobga olishning muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ular kaysi maksad

uchun (aytaylik, daromad olish) va amalga oshirish shaklidan (pulli, moddiy) qat'iy nazar hisobda tan olinishi zarur. Har bir xo'jalik yurituvchi subekt ishlab chiqarish hisobotida o'z faoliyatiga xos bo'lgan ko'rsatkichlarni to'ldirib boradi. Moliyaviy hisobot har yili bir martadan kam bo'lmagan tartibda taqdim qilinishi shart. 3-rasmda keltirilgan elementlarga xalqaro standartda keltirilgan tavsiflarini keltiramiz:



### 3-rasm. Moliyaviy hisobot elementlari.

#### Moliyaviy natijalar hisobi va hisoboti amaliyotida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) muhim ahamiyat kasb etadi.

Investorlar va boshqa moliyaviy axborotdan foydalanuvchilar (masalan, davlat organlari, kasaba uyushmalari, biznes-sheriklar va h.k.) o'zlarini qiziqtirgan tashkilot haqidagi ma'lumotdan manfaatdor bo'ladi. Bu manfaat esa ularning iqtisodiy, investitsion va huquqiy qaror chiqarishlari zaruratidan kelib chiqadi.

Misol uchun, ular aksiyador kiritgan mablag'lari qanchalik foyda keltirishi, biznes mulki qanchalik o'sgani, qarzdorlik holati qanday ahvoldaligi kabi savollar bilan qiziqishlari tabiiy. Undan tashqari, salohiyatli investor biror biznesga mablag' kiritish yoki kiritmaslik haqidagi qarorini yaxshilab baholashga urinadi, bunda u tashkilotni ish yuritayotgan tarmoqdagi boshqa shirkatlar bilan solishtirib ko'rishiga to'g'ri keladi. Buning uchun mazkur tashkilotning iqtisodiy, mulkiy va moliyaviy holati va o'tgan davr faoliyati natijalari haqidagi raqamli va tushuntirish matnlaridan iborat hisobotga zarurat tug'iladi.

Ayniqsa qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalar mahsulotlarining har bir turi bo'yicha alohida hisob yuritishlari talab etiladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan qayta ishlovchi korxonalar bozor va iste'molchilar talablaridan kelib chiqib, xom ashyolarni qayta ishlashlari va shu asosda mahsulotlar assortimentini yaratishlari maqsadga muvofiqdir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, amaliyotda, aksariyat, korxonalar boshqaruvi va buxgalteriya bo'limi mutaxassislari xarajatlarni tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib, xarajatlarni alohida moddalariga ajratish shart emas deb hisoblaydilar.

Bizningcha esa, umuman olganda, ushbu holat korxonalar hisob siyosatiga zid bo'lmasada, lekin ushbu mulohazalar to'g'ri emas, chunki qayta ishlovchi korxonalar mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari shakllantirilishiga bo'lgan ehtiyoj ortib boraveradi. Korxonalar buxgalteriya hisobida moliyaviy natijalarni aniqlashda xarajatlar moddalarini bo'yicha ma'lumotlar muhimligi ortadi, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda esa, xarajatlar to'g'risidagi axborotlar bazasi aniqligi, to'liqligi va tezkorligi, ular bo'yicha taxlil natijalar, unumsiz xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llash ahamiyati ortib

boradi.

Bizningcha xarajatlarni alohida moddalariga ajratilgan holda hisobot shakllarida ham aks ettirish maqsadga muvofiq. Chunki har bir tarmoqning mahsulotini rentabelligi va boshqa samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda va moliyaviy hisobot ma'lumotlari umumlashgan ma'lumot bo'lganligi sababli ko'zlangan maqsad uchun yetarli ma'lumotni bera olmaydi. Shuning uchun korxonalarda har bir tarmoq moliyaviy natijasini aniq ko'rsatish maqsadida yangicha xalqaro standartlar talabiga javob beradigan "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"ni blankalari ishlab chiqilib joriy qilinishi kerak. Shunda har bir tarmoqning ishlab chiqarish tannarxi, moliyaviy natijalari to'g'risidagi ma'lumotni korxonada boshqaruvi xodimlari oson va aniq olishlari mumkin. Bu esa ularga aniq ma'lumotlarga asoslanib tezkor qarorlar qabul qilishda muhim axborot vazifasini o'tashi mumkin.

Ma'lumki, rentabellik korxonalar faoliyatini, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini umuman ifodalashi lozim.

Shunday qilib, umuman moliyaviy tahlilga o'xshab, rentabellik darajasini o'lchashda ham umumiy qabul qilingan uslub, ko'rsatkichlar tuzilmasi hali shakllanmagan. Shuning uchun, amaliyotda korxonalar tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib, xarajatlar moddalarini tasniflash va shunga muvofiq hisobini yuritish maqsadga muvofiqdir va bu esa, korxonada samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilinishiga va xarajatlarni eng maqbul variantlarda boshqarishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

**Xulosa va takliflar.** O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi tizimida moliyaviy natijalarini hisobga olish va nazorat qilishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari nazariy asoslarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida keltirilgan moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim qilishning Konsepsiyasida moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga sarmoyadorlar, xodimlar, qarz beruvchilar, ta'minotchilar va boshqa savdo kreditorlari, xaridorlar, hukumat organlar, jamoatni kiritgan holda, ularning axborot ehtiyojlarini qondirish masalasini quyidagicha tavsiflaydi: "Moliyaviy hisobot orqali barcha axborot ehtiyojlarini qondirish mumkin bo'lmasada, barcha foydalanuvchilar uchun umumiy bo'lgan talablar amal qiladi.

2. Moliyaviy hisobotlarda moddalarni taqdim qilinishi va ularning tasnifi bir davrdan ikkinchi davrda saqlanishi lozim (taqdim qilishning ketmaketligi). Korxonada moliyaviy hisobotlarni taqdim qilishda usullarga o'zgartirish kiritishi kerak bo'ladi, agarda o'zgargan tarkib ehtimol to'liq saqlanilsa yoki muqobil ko'rinishda taqdim qilishdan olinadigan naf muqarrar bo'lishi ko'rib chiqildi.

4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subektlarda foydani oshirishning yangi imkoniyatlarini topish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu esa, moliyaviy natijalarni shakllantirishning konseptual jihatlarini takomillashtirishni talab etadi.

5. Korxonalarda har bir tarmoq moliyaviy natijasini aniq ko'rsatish maqsadida yangicha xalqaro standartlar talabiga javob beradigan "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"ni blankalari ishlab chiqilib joriy qilinishi kerak. Shunda har bir tarmoqning ishlab chiqarish tannarxi, moliyaviy natijalari to'g'risidagi ma'lumotni korxonada boshqaruvi xodimlari oson va aniq olishlari mumkin. Bu esa ularga aniq ma'lumotlarga asoslanib tezkor qarorlar qabul qilishda muhim axborot vazifasini o'tashi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining - "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha – chora tadbirlar to'g'risida"gi 24.02.2020 PQ-4611 Qarori.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari



- bo'yicha harakatlar strategiyasi. 2017. strategy.regulation. gov.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos to'g'risida"gi 14.08.1998 PQ-475 Qarori.)
  4. Сметанко А. В. Актуальные вопросы аудита бухгалтерской отчетности в Российской Федерации / А. В. Сметанко, Ю. В. Михальчук // Научный альманах. — 2016. — № 10–1 (24). — С. 233–236.
  5. Донцова, Л.В. Анализ финансовой отчетности: учебное пособие. – 2-е изд. / Л.В. Донцова. – М.: Издательство «Дело и Сервис», 2004. – 336 с.
  6. Сметанко А. В. Проблемы бухгалтерского учета при переходе на международные стандарты финансовой отчетности / А. В. Сметанко, С. В. Власов, Д. С. Москалюк // Научный альманах. — 2016. — № 9–1 (23). — С. 35–39.
  7. Внутрішній аудит [текст]: навч. посібник / О. В. Сметанко, І. С. Шарапова, Г. С. Коваленко, Н. В. Бурдюг, В. О. Горбачьов, О. С. Сорокіна; за ред. О. В. Сметанко. — Сімферополь.: ІП «Куртбедінова Д. А.», 2014. — 49 с
  8. Узоков, Н., Хушмурадов, О. Х., & Бабаева, Л. (2014). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИИ В МОДЕРНИЗАЦИИ И РАЗВИТИИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ. In ФЕНОМЕН РЫНОЧНОГО ХОЗЯЙСТВА: ОТ ИСТОКОВ ДО НАШИХ ДНЕЙ (pp. 376-378).
  9. Oman, X., & Alisherovich, T. S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF CLUSTERS IN THE AGRICULTURAL SECTOR. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 202-206.
  10. Хуррамов, А. Ф. Туробов Шерзод Алишерович, & Мингбоев Шухрат Мингбой Ўғли (2018). Уй хўжалигида инновацион фаолиятни ривожлантиришнинг иқтисодий механизми. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (8), 16-20.
  11. Хуррамов, А. Ф., Маматов, А. А., Мингбоев, Ш. М. Ў., & Туробов, Ш. А. (2018). Иқтисодий ресурсларнинг доиравий айланиш моделида уй хўжалигининг тутган ўрни. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (9), 2-6.
  12. Тухтабаев, Ж. Ш. (2020). Пандемия шароитида деҳқон хўжалиги ва томорқа ер эгалари фаолиятининг аҳоли турмуш даражасини оширишдаги роли. Молия ва банк иши электрон илмий журнал 2020 йил, № 2 сон. март-апрел. 318-323 б. Молия ва банк иши электрон илмий журнал, (2), 318.
  13. Toxirovna, S. G. (2021). Farmers-Food Sustainability Services. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 899-904.
  14. Alikulov, A. T., & O'rinov, K. (2022). O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 690-695.
  15. Alikulov, Azamat Tugunovich, & O'rinov, Komiljon (2022). O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 690-695.
  16. Iskandarovich, R. R. (2022). QISHLOQ XO 'JALIGIDA AGROKLASTERLARINI BARPO ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 390-394.
  17. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, 2(7).

18. Усанов, А., & Раҳмонкул, Д. (2019). Ўзбекистон иқтисодий ривожланишида камерал назоратнинг тутган ўрни. Экономика и финансы (Узбекистан), (11), 55-60.
19. Джалилов, Р. (2023). ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ БЎЙИЧА ИМТИЁЗЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Economics and education, 24(2), 272-278.
20. Alisherovich, T. S., & Ugli, N. B. B. (2023). Internal Control in Banks. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 3(3), 34-39.
21. Alisherovich, T. S. (2023). IMPROVING ACCOUNTING AND ITS MAINTENANCE IN BANKS. Gospodarka i Innowacje., 31, 15-20.
22. Бердиев, А. Х., & Расулов, Х. К. (2020). Эффективность производства органических продуктов в сельском хозяйстве. Economics, (2 (45)), 19-22.
23. Hakimovich, B. A., & Khudayberdiyeva, D. M. (2020). Advantages of introducing agrocluster in agriculture. International Journal on Orange Technologies, 2(11), 37-40.
24. Farmanov, J. Z., Rimboeva, N. X. qizi, & Rimbayeva, G. X. qizi. (2023). QISHLOQ XO‘JALIGINI RAQAMLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH. GOLDEN BRAIN, 1(1), 231–236. Retrieved from
25. Farmanov J. UKRAINIAN EXPERIENCE IN DEVELOPING THE BEEKEEPING NETWORK IN OUR COUNTRY //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – Т. 2. – №. 09. – С. 66-69.
26. Khakimovich, B. K. (2022). Using of Economic Analysis Methods in the Audit of Private Capital. Open Access Repository, 8(04), 62-66.
27. Hakimovich, B. K. (2023). IMPROVEMENT OF PRIVATE CAPITAL AUDIT IN ECONOMIC SUBJECTS ACCORDING TO INTERNATIONAL AUDIT STANDARDS. Gospodarka i Innowacje., 35, 34-40.
28. Бутунов, Ш. Б. (2020). Совершенствование учета финансовых результатов на предприятиях. Логистика и экономика". Научный электронный журнал, (4).
29. Бутунов, Ш. Б. (2021). THE IMPACT OF MACROECONOMIC AND BANKING FACTORS ON THE LEVEL OF NON-PERFORMING LOANS: RESULTS FOR THE CIS COUNTRIES. Economics, (3 (50)), 33-42.
30. Музаффарова, К. З., & Эгамбердиева, С. Р. (2022). ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ИҚТИСОДИЁТИДА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯ ИШТИРОКИДАГИ КОРХОНАЛАРНИНГ РОЛИ. Журнал Инновации в Экономике, 5(1).
31. Zoyirovna, M. K., & O'gli, A. H. R. (2022). STRONG DIRECTIONS FOR IMPROVING ECONOMIC CAPITAL IN THE TERRITORY OF KASHKADARYA REGION. Gospodarka i Innowacje., 29, 243-247.
32. Rayimovna, E. S., & Normamatovich, X. O. (2021). Kapital Qo „Yilmalar Hisobini Takomillashtirish. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 290-296.
33. Kholmurodov, O. (2022). CONSOLIDATED FINANCIAL STATEMENTS AND THEIR THEORETICAL FOUNDATIONS. Educational Research in Universal Sciences, 1(7), 432-436.
34. Ravshanov, A. (2022). Objective Accounting Issues in the Enterprise. Journal of Marketing and Emerging Economics, 2(5), 83-87.

35. Равшанов, А. Б. (2022). БИОЛОГИК АКТИВ ТУШУНЧАСИ ВА УЛАРНИ ТЎҒРИ ТАСНИФЛАШ МАСАЛАРИ. ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(7), 31-36.
36. EGAMBERDIYEVNA, A. N., MURTAZAYEVNA, N. Y., & SABIROVICH, E. A. MODERN PRACTICE OF REGULATING PROCESSES OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS AND APPROACHES TO ITS IMPROVEMENT.
37. Azimova, N. E. (2022). INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF REGIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 178-182.
38. Эргашева, Н. (2022). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Innovatsion texnologiyalar*, 1(04), 108-111.
39. Равшанов А. Д. Абдисалом Дусиёрович, Хасанов Шамсиддин Хафизович, & Алимханова Нигора Алимхановна (2018). Қишлоқ хўжалигини инвестицион-инновацион ривожлантириш имкониятлари ва истиқболлари. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (11), 9-14.
40. Murodova, N. U., Temirova, F. S., Alimkhanova, N. A., Dostova, M. K., & Azimova, K. E. IMPROVING THE CALCULATION OF INVENTORIES OF GOODS IN ACCOUNTING.
41. Жумаева, Г. Ж. (2023). НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АНАЛИЗА ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ. *SCHOLAR*, 1(8), 37-42.
42. Jumayeva, G. J. R., & qizi Sultonova, M. O. (2022, December). FERMER XO 'JALIKLARINING MOLIYAVIY NATIJALARGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNI HISOBLASH YO 'LLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 18, pp. 127-130).